**XALQ DEPUTATLARI SHO‘RCHI TUMANI KENGASHINING QARORI**

Sho‘rchi tumani, Mustaqillik ko‘chasi 72-uy. 191500, tel.: (+99876) 457-45-73

2022 - yil 28 - noyabr VI-53-186-8-120-K/22 Sho‘rchi tuman hokimligi

# Tumandagi ayrim qabristonlarning nomlarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi 295-sonli O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 6-moddasiga asosan xalq deputatlari Sho‘rchi tumani Kengashi **qaror qiladi:**

1.Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2022-yil 4-noyabrdagi 00945-son yig‘ilish bayoni ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2.Tumanda nomlari tasdiqlanayotgan qabristonlarning ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.Tuman statistika bo‘limi (M.Sattarov), tuman qurilish bo‘limi (R.Turdiyev), Davlat kadastrlar palatasi Sho‘rchi tumani filiali (A.Allayorov), tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (B.Mengboyev) tuman hokimligi bilan birgalikda nomlari tasdiqlangan qabristonlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

4.Tuman qurilish bo‘limi (R.Turdiyev), tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (B.Mengboev) hududlarda nomlari o‘zgartirilgan geografik

obyektlarga yangi nomlari yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

5.Mazkur qaror tuman hokimligi axborot xizmati (N.Shoyeva), “Jarayon” gazetasi tahririyati (B.Elmurodova)ga rasman e’lon qilinshi va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish tavsiya etilsin.

6.Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (D.Nazarov), xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (U.Sherxonov) zimmalariga yuklatilsin.

7. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

**Xalq deputatlari tuman Kengashi raisi** **Xudoyberganov B.X**

Xalq deputatlari Sho‘rchi tuman
Kengashining
2022 yil 28 noyabrdagi
VI-53-186-8-120-K/22-son qaroriga
1-ilova

**Qarorga ilova**

## Surxondaryo viloyati Sho‘rchi tumanidagi ayrim qabristonlar nomlari

| T/r | Geografik obyektning turi | Joylashgan o‘rni | Geografik obyektning amaldagi nomi | Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif | Ekspert komissiyasining xulosasi |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Qabriston | Yangiobod MFY | Nomlanmagan | Shayitmozor | Shayitmozor - “Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i Qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 2. | Qabriston | Egarchi MFY | Nomlanmagan | Changal | Changal- “Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i Qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 3. | Qabriston | Oqtumshuq MFY | Nomlanmagan | Kapalibobo | Kapalibobo - “Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i Qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 4. | Qabriston | Yangiariq MFY | Nomlanmagan | Boytepa | Boytepa - “Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i Qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 5. | Qabriston | KattaSavur MFY | Nomlanmagan | Pardashahid | Pardashahid - “Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i Qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 6. | Qabriston | Kakaydi MFY | Nomlanmagan | Qoqaydi | Qoqaydi - “Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i Qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 7. | Qabriston | Oqkamar MFY | Nomlanmagan | Sovjiron-2 | Sovjiron-2 - “Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i Qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |